



ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 15th October 2022

KEY WORDS

Diniy tuyg'ular, ilohiyotga sig'inish, diniy qarashlar kuchi, xudolar, ateizmning diniy shakllari, diniy g'oyalar, reformaciya.

OMMANING DINIY QARASHLARI

Kdirbayev Baxadir Berdaxovich

Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi, Kegeyli tuman
ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7203680>

ABSTRACT

Maqolada ommaning diniy tuyg'ulari, qarashlari haqida bo'lib, ilohiylikka sig'inish, uning xususiyatlari, diniy qarashlarning kuchi turli misollar keltirilgan.

Hech qachon yo'qolmagan xudolar, eski xudolarning yangi qiyofada qaytishi, ateizmning diniy shakllari, diniy g'oyalarning tarixiy ahamiyati, diniy tuyg'ular oqibatida omma tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar va fikir mulohazalar keltirilgan.

Rim imperiyasining qulashi va Arab xalifaligining tashkil topishi kabi civilizaciyaning o'zgarishiga olib kelgan yirik inqiloblar bir qaraganda siyosiy jarayonlar o'zgarishi, qo'shni davlatlar istilosi yoki sulolalarning taxtdan ketishi oqibatida ro'y bergandek tuyuladi. Biroq bu jarayonlarni yanada chuqur tahlil qilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ochiq sabablar zahirida yashirin sabablar ham mavjud. Bir qaraganda sezilmaydigan sabablardan biri – insonning fikrlash tarzidagi ulkan o'zgarishdir.

Bu o'zgarishlarga sabab bo'layotgan ikkita asosiy omil mavjud. Birinchisi – civilizaciya elementlarining ildizi hisoblangan diniy, siyosiy va ijtimoiy e'tiqodlarning emirilishi; ikkinchisi – zamonaviy ilm-fan va sanoat inqilobi oqibatida yuzaga chiqqan butunlay yangi sharoitlar va yangicha fikrlash tarsi.

Ommaviy ishonch yaxshilab taxlil qilinsa, u xoh diniy e'tiqod mustahkam davr bo'lsin, xoh o'tgan asrdagi siyosiy alg'ov-

dalg'ov yillar bo'lsin, bu ishonchning maxsus bir ko'rinishi mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Buni diniy tuyg'ular, deb atasak bo'ladi.

Bu tuyg'uning xususiyatlari ju'da oddiy, bular: oliy kuchga sig'imish va bu kuchdan qo'rqish, uning buyruqlariga amal qilish, u bilan bog'lik xurofotlarga ko'z yumish, u to'g'risidagi tasavvurlarni atrofga yoyib, buni qbul qilmaganni dushman sifatida ko'rish kabilardir. Bu tuyg'u xoh Xudo yoki bud-sanamlarga, xoh biron qahramon yoki siyosiy tushinchaga oid bo'lsin, diniy tuyg'u bo'lib qolaveradi. Chunki bu tuyg'uning xususiyatlari keltirgan misollarimizning barchasida bir ko'rinishda namoyon bo'ladi. Hatto mo'jizaviylik va g'ayrioddiylik kabi xususiyatlar ham nafaqat Xudoga oid, balki siyosatga oid nuqtalarda ham bir xil ko'rinishda bo'ladi. Omma ishtiyoqi oshgan sayin, u ongsiz ravishda siyosiy tuzumda yoki zabardast hukmdorda qandaydir sirli kuch bor deya hisoblay boshlaydi.



Inson faqat Xudoga ishonganida emas, balki biron liderga yoki g'oyaga Mutlaq bo'ysunganda ham dindor hisoblanadi. Bunda o'z irodasini boy bergan insonning o'y va harakatlarini lider yoki g'oya shakllantirib beradi. Toqatsizlik va mutaassiblik diniy tuyg'ularga xosdir. Bu tuyg'ular ko'p hollarda o'zini butun olam sirlarini bilaman, deb hisoblaydigan insonlarga xos bo'ladi. Shuningdek, bu tuyg'ular bir joyda bir e'tiqod ostida to'plangan insonlar guruhiga ham xosdir. Tarixda Yakobinchlar ham Inkviziciya nasroniylari kabi dindor edi va bu ikki toifaning ham shafqatsizliklari manbai bir edi. [1]

Ommaviy ishonch diniy tuyg'uga xos bo'lgan xususiyatlarga ega, bu xususiyatlar – ko'r-ko'rona qaramlik, kuchli toqatsizlik va jinoiy targ'ibotga moyil bo'lish. Shunday ekan, ommaning har qanday ishonchi diniy ko'rinishga ega bo'ladi.

Omnia ichida qahramon, deb tan olingan kishi omnia uchun haqiqiy qahramonga aylanadi. O'tgan davrda Lenin, Stalin kabi insonlar yillar davomida mana shunday "qahramon" bo'lib keldi. Diniy va siyosiy rahnamolarning barchasi ommada mutaassiblik tuyg'ularini hosil qilgan va natijada omnia bo'ysunuvchanlik va butun hayotini birgina g'oyaga bag'ishlashdan zavq topgan. Hamma davrda ham shunday bo'lib keldi. Fyustel de Kulanj o'zining ajoyib asari bo'lmish "Roman Gaul"da Rim imperiyasi kuch orqali boshqarilgani uchun emas, balki diniy e'tiqod yuqoriga ko'tarilgani uchun rivojlanganligini ta'kidlaydi. Xalqning tartib va sadoqatlilikni saqlaganiga sabab – xalq Rimning buyuklik ramzi bo'lgan imperatorin ilohiy, deb bilishida edi. Imperiyaning kichik shaharlarida imperator uchun al'tarlar (sig'inish uchun mehrob) bo'lgan.

Bugunga kelib, boshqaruvchilar uchun hech qanday al'tarlar yo'q, ammo buning o'rniga xalq ularga haykallar qo'yib, qo'lida ularning portretlarini ko'tarib yuradi. Shu jihatdan olib qaralsa, hozirgi kundagi shaxsga sig'inish holati qadimgi davrdagi holatdan deyarli farq qilmaydi. Omnia talab qiladigan eng birinchi narsa bu – ilohdir. [2]

Qadimgi bid'at va xurofotlarni zamonaviy tafakkur butkul yo'qqa chiqargan, deb o'ylash xato bo'lar edi. Aql bilan ming yillardan kurashib kelayotgan his-tuyg'ular hali hanuz butkul yengilgan emas. Omnia juda uzoq muddat davomida ilohiyot va din nomi ostida qulga aylantirilgan edi, endilikda ularga din orqali avvalgidek kuchli ta'sir ko'rsatilmayapti.

Shunday ekan, omnia uchun din muhim, deb aytish noo'rin, chunki barcha siyosiy, ilohiyotga doir va ijtimoiy qarashlar faqat diniy ko'rinish olganidagina xalq ichida palak yoza oladi. Bu qarashlar diniy ko'rinishga ega bo'lish orqali omnia o'rtasidagi har qanday bahs-munozaralarni oldini olishga xizmat qiladi. Agar xalqni ateizmga chorlash iloji bo'lganida, ateizm ham xuddi dinga o'xshab toqatsizlik tuyg'ularini paydo qilar va hatto ateizmga sig'inish hollari ham uchrab turishi mumkin edi. Dostoevskiyning hikoyasidagi nigilist qay ahvolga tushgan edi? Kuchli tafakkurga ega bo'lgan bu qahramon har qanday ilohiylikni inkor etib, ibodat shamlarini o'chirib qo'yadi va buzilgan jihozlar turgan o'rinni Bushner va Moleshott kabi ateist faylasuflarning haykallari bilan to'ldiradi, so'ngra esa shamlarni qaytadan yoqadi. Bu yerda e'tiqodga doir narsalar o'zgardi, ammo uning diniy tuyg'usi ham o'zgardi yoki yo'qoldi, deb ayta olamizmi?

Takidlab o'tish lozim, tarixiy hodisalarni ommaning diniy qarashlari shakllanmasidan turib, to'liq izohlab



bo'lmaydi. Reformaciya, Varfolomey tuni, diniy kurashlar, inkviziciya, terror, ekstremizm kabi hodisalarni olib qarasak, ommani harakarga keltirgan kuch diniy e'tiqod edi va omma bunga qarshi bo'lgan barchani olovga tutdi va qilich qayradi. Inkviziciya shafqatsiz yo'ldan foydalanganiga sabab, ularning e'tiqodi o'ta mustahkam ekanligida edi. Mustahkam e'tiqod boshqasha usuldan foydalanishga yo'l qo'ymas edi.

Yuqorida ko'rsatilgan misollar omma xohlagandagina ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyatlardir. Hattoki Mutlaq zolim boshqaruvchilarning yakka o'zi bunga qodir emas. Tarixchilar Varfolomey tunidagi qirg'in, Gitlarning yahudiylarga qilgan

zulumlikari qirg'in qurollarining ishi, deb aytganlarida o'zlarining omma psixologiyasidan qanchalar bexabar ekanliklarini oshkor qiladilar. Bunday harakatlar faqatgina omma istaganida, ommaviy ruh shuni talab qilganida ro'y berishi mumkin. "Hukmdor"ning qo'lidan keladigan yagona ish – bu jarayonni tezlatish yoki sekinlatishdir. Omma doimo ongsiz holatda bo'lishiga hech qanday shubha yo'q, ammo ommaviy kuch-qudiratning siri ham mana shu ongsizlikda bo'lishi mumkin. Shunday qilib, bu kabi yirik tarixiy hodisalar har doim yakka "hukmdor"larning emas, balki ommaning ishi bo'lib kelgan.

References:

1. A. Mo'minov v.b. Dinshunoslik. – T.: «Mehnat», 2004.
2. G. Lebon. Omma psixologiyasi. – T.: «Yoshlar matbuoti», 2021.